

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TARIXIDAN (TARIX
FAKULTETI MISOLIDA)

Farruh Rahmonov - JDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix)1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax vohasida qadimdan mavjud bo'lgan ilmiy va ma'naviy jarayonlarning uzoq shakllanish jarayoni hamda Jizzax davlat pedagogika institutining tashkil etilishi va rivojlanishi, Tarix fakulteti ochilishining muhim ahamiyati xususida umumiy tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax, JDPI, "Farjak", ilmiy markaz, Nuriddin madrasasi, Tarix fakulteti, falsafa, instituti, rektor, kafedra.

Annotation: This article provides a general analysis of the long process of formation of scientific and spiritual processes in the Jizzakh oasis and the importance of the establishment and development of the Jizzakh State Pedagogical Institute, the opening of the Faculty of History.

Keywords: Jizzakh, JDPI, "Farjak", Scientific Center, Nuriddin Madrasa, Faculty of History, Philosophy, Institute, Rector, Department.

Аннотация: В данной статье дается общий анализ длительного процесса становления древних научных и духовных процессов в Джизакском оазисе и значение становления и развития Джизакского государственного педагогического института, открытия исторического факультета.

Ключевые слова: Джизак, JDPI, «Фарджак», Научный центр, Медресе Нуриддина, факультет истории, философии, институт, ректор, кафедра.

O'zbek xalqi milliy ma'naviyatining ildizlari uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Bu moziy haqiqatini Birinchi Prezidentimiz I.Karimov quyidagicha ta'kidlagan edilar: "Millatimiz chuqur ildizga ega. Bu bizning boyligimiz. Shunday ekan binomiz ham baland, poydevori mustahkam bo'lishi kerak"¹.

Arxeolog va tarixchilar izlanishlari natijasidan ma'lumki, bundan bir necha ming yillar ilgari Markaziy Osiyoda insoniyat madaniyatining dastlabki o'choqlari paydo bo'lgan. Qadimgi davrlardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivoji natijasida dastlabki Markaziy Osiyoda yozuv paydo bo'ladi. Buning natijasida xalqlarning qadimgi bilim va tajribalari yozuvlarda aks etib, taraqqiyotning muhim omili bo'ladi.

Markaziy Osiyo mintaqasiga arablar bosqini natijasida islom dini va arab yozuvi kirib keladi. Islom dini mahalliy xalqlarning ma'naviy va axloqiy hayotini yuksak darajaga olib chiqdi. Sharq falsafasi asosida Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshband, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek,

¹ I.A.Karimov Asarlar to'plami. 1-jild. Toshkent: O'zbekiston. 1996. 192-bet.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Alisher Navoiy, Bobur, Abdurazzoq Samarqandiy, Fitrat, Cho'lpon va shu kabi yuzlab olimlar yetishib chiqdilar va jahon ilm-faniga be'qiyos hissa qo'shdilar.

Mintaqada ko'plab ma'rifat sohiblarining kamol topishida ilm-fan markazlarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz. Qadimgi davrlardagi zardo'shtiylik ibodatxonalari dastlabki tabiat, tabobat va astronomik bilimlar markazlari bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarda Buxoroda dastlabki yirik ilm maskani "Farjak" madrasasi ochiladi. Bu kabi madrasalarda minglab Markaziy Osiyolik olimlar o'z bilimlarini oshirish bilan bir qatorda mahalliy yoshlarga turli fan sohalaridan dars o'tganlar.

Markaziy Osiyoning turli hududlari qatori dastlab Ustushona keyinchalik Dizak nomlari bilan atalgan hozirgi Jizzax vohasining ham alohida o'rnini ta'kidlab o'tish lozim. Jizzax vohasida 1902-yili tashkil etilgan "Nuriddin xoji" nomi bilan mashhur madrasa butun voha aholisining ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojida muhim o'rin tutgan. Madrasada o'qish 1912-yilgacha ya'ni podsholik hukumati buyrug'i bilan madrasa yopib qo'yilguniga qadar davom etdi².

XIX asr o'rtalaridan boshlangan Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlari natijasida Jizzax vohasi ham vayron etildi. Bu hududda ming yillar davomida mavjud bo'lgan ilm-fan tajribalariga jiddiy ziyon yetkazildi. Voha hududi oson boshqarish maqsadida mustamlakachi hukumat tomonidan boshqa viloyatlar tarkibiga qo'shib yuborildi.

XX asr 70-80 yillarida Jizzax viloyatida ilm-fan va ma'naviy taraqqiyotning yangi davri boshlandi. Jizzax vohasida sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishni yanada tezkor rivojlantirish, mavjud yer-suv, tabiiy boylik zaxiralaridan samarali foydalanish, aholiga hizmat ko'rsatishni yahshilash, Jizzax cho'lini o'zlashtirishni tezlashtirish maqsadida O'zbekiston Oliy Kengashining Prezidiumining 1973-yil 29-dekabrda qaroriga asosan, Sirdaryo viloyatining Jizzax, Forish, Do'stlik, Zomin, Paxtakor, Mirzacho'l, Oktyabr (Hozirgi Zafarobod) hamda Samarqand viloyatining Baxmal, G'allaorol tumanlari bazasida Jizzax viloyati tashkil topdi³.

Jizzax cho'lining o'zlashtirilishi yangi xo'jaliklar, sanoat korxonalarining ko'payishi, u yerlarda ishlaydigan aholining o'sishiga olib keldi. Tumanlarda istiqomat qilayotgan aholi sonining o'sishi esa yangi maktablarning va maktabgacha muassasalarning ko'payishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida malakali o'qituvchilarga bo'lgan talablarning oshib borishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, viloyatning Zomin, Forish, G'allaorol, Mirzacho'l kabi tumanlarining qishloq maktablarida malakali o'qituvchilar ta'min qilishni taqozo qilar edi⁴. Ushbu

² H.Haydarov, Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida tarixiy lavha va xotiralar). Toshkent, "O'qituvchi", 2009-yil 94-bet.

³ S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil.5-bet.

⁴ O'sha manba.5-bet.

Тарих ва Жамият илмий журнали

holatlarni inobatga olgan holda hamda mintaqada tug'ilgan xalq farzandi Sharof Rashidov va bir qancha mahalliy fidoyi ma'sullarning say-harakatlari asosida Oliy o'quv yurti tashkil etilishiga olib keldi.

Jizzax viloyatida xalq maorifi tarmog'i malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlari yil sayin ortib borishi hisobga olinib, O'zbekiston maorif ministrligining 1974-yil 8-avgustda № 256 sonli buyrug'i asosida Jizzax davlat pedagogika instituti tashkil topdi⁵. Institut sobiq SSSR Ministrlar sovetining № 605 qaroriga asosan tashkil etilgan. Xalq deputati Sirdaryo (Hozirgi Jizzax) viloyat sovetining ijroiya komiteti 21.12.1989 yil № 451/27-sonli qaroriga muvofiq unga Abdulla Qodiriy nomi berilgan⁶. Institutning birinchi rektori etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bozorboy O'rinboyev va o'quv-tarbiyaviy ishlari muovinligiga falsafa fanlari nomzodi, dotsent Z.Zubaydullayevlar tayinlandi. 1990 yili institut rektorligiga tanlovda B. O'rinboyev 1992 yil noyabr oyiga ko'pchilik ovoz olib, yana rektorlikka saylanib, 1992 yil noyabr oyigacha bu lavozimda mehnat qildi.

Jizzax pedagogika institutida 1992-1995 yillarda geografiya fanlari doktori, professor S.Nishonov rektorlik qildi. 1995-1997 yillarda institutning o'quv ishlari buyicha prorektori, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent B. Mamajonov vaqtinchalik rektorlik lavozimini bajardi. 1997 yildan 2005 yil mart oyigacha kimyo fanlari doktori, professor F.Muxamedov rahbarlik qilib, institutni Respublikadagi ilg'or o'quv maskanlaridan biri darajasiga ko'tarish va professor-o'qituvchilar o'rtasida sog'lom muhit yaratish borasida ibratli ishlarni amalga oshirdi⁷.

Institutga 2005 yil mart oyidan Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetida mexanika-matematika fakulteti dekani lavozimida ishlagan fizika-matematika fanlari doktori, professor O. Do'stmatov rektor etib tayinlandi va bu lavozimda 2014 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. 2015 yildan sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Xolbekov rektor lavozimida 2020 yilgacha samarali mehnat olib bordi⁸.

2001-2002 o'quv yili ma'lumotlariga ko'ra institutda 8 fakultet (o'zbek tili va adabiyoti, tarix va huquq, pedagogika, xorijiy tillar, fizika, matematika, kimyo-biologiya, kasb ta'limi, jismoniy tarbiya), 5 bo'lim (musiqqa, pedagogika-psixologiya, geografiya, qozoq, sirtqi), 36 kafedra, 31 o'quv va amaliy laboratoriya, ustaxona, tajriba ishlab chiqarish maydoni, profilaktoriy va sport sog'lomlashtirish muassasalari bor. Institut qoshida iqtidorli bolalar gimnaziyasi va akademik litsey mavjud. Institut o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, ped. va boshlang'ich ta'lim uslubi, kimyo-ekologiya, biol., mat.-informatika, fizika-

⁵ O'sha manba. 5-bet.

⁶ <https://jspi.uz/institut/umumiy-malumotlar/>

⁷ H.Haydarov, Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida tarixiy lavha va xotiralar). Toshkent, "O'qituvchi", 2009-yil 250-bet.

⁸ H.Haydarov, Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida tarixiy lavha va xotiralar). Toshkent, "O'qituvchi", 2009-yil 251-252-betlar.

Тарих ва Жамият илмий журнали

astronomiya, kasb ta'limi, tarix, huquqshunoslik, musiqa-ped., geogr., jismoniy tarbiya, huquq va ma'naviyat asoslari, maktabgacha ta'lim, tasviriy san'at, ped.psixologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. 2001/2002 o'quv yili institutda 3573 talaba ta'lim oldi, 295 professor-o'qituvchi, jumladan 14 fan doktori va professor, 122 fan nomzodi va dotsent ishladi. 2002-yilgacha institutda 6 mingdan ziyod mutaxassis tayyorlandi⁹.

A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 1995-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti qoshida bo'lim sifatida tashkil etilgan. 1999-2000 o'quv yilidan boshlab Tarix bo'limi Tarix va huquq fakulteti sifatida faoliyat yurita boshlagan. Unda dastlab dotsent A.Botirov bo'lim boshlig'i (1995-1999 y.y), so'ngra fakultet dekani lavozimida dotsent E.Xolbo'tayev (1999-2006 y.y), dotsent A.Xotamov (2006-2008 y.y), o'qituvchi Z.Xolboyev (2008-2009 y.y) yillarda, dotsent B.Mirkomilov (2009-2010 y.y), dotsent S.G'oziyev (2010-2016 y.y), professor S.Abduxoliqov (2016-2017 y.y), (PhD) R.Yarmatov (2017-2019 y.y) fakultetga rahbarlik qilgan. 2019-yil yanvardan boshlab fakultetga dotsent A.Pardayev rahbarlik qilib kelmoqda. Fakultetda hozirgi kunda 2 ta yo'nalish bo'yicha pedagogik-kadrlar tayyorlanmoqda.

– 5110600 – Tarix va uni o'qitish metodikasi (tarix),

– 5111600 – Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi.

Tarix fakultetida mavjud kafedralar tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Falsafa kafedrasida 1987 yili sobiq ilmiy kommunizm kafedrasidan ajralib chiqib, o'z faoliyatini boshladi. Bu davrda kafedrada uch fan nomzodi ishlab, falsafa fanlari nomzodi Z. Nizomitdinov mudirlik qildi. 1992 yildan boshlab falsafa fanlari nomzodi, doqent A. Botirov kafedraga mudirlik lavozimiga kirishdi. Kafedrada 1994 yil 10 ta fan nomzodi, doqentlar A. Botirov, M. Egamqulov, 3. Nizomitdinov, Sh. Ikromov, F. Mamatqulov, A. Xatamov, J. Norbekov, katta uqituvchilar Sh. Ashurov, M. Turonov, uqituvchilar 3. Bozorboyeva, P. Qulmatov, kabinet mudirasi 3. Pirnazarovalar faoliyat ko'rsatishgan. Kafedra a'zolari o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda, falsafa fanining aktual muommolari buyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. 1992-1993 uquv yilida kafedra a'zolari tomonidan 8 ta ilmiy maqola va 7 ta ilmiy-uslubiy qo'llanma chop etildi. Kafedra a'zolari o'zlarining faoliyatini mustaqil O'zbekiston Respublikasining obru-e'tibori va qudratining oshib borishi muammolariga, Sharq musulmonlari falsafasini chuqurroq o'rganishga qaratdilar¹⁰.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinishi munosabati bilan o'zbek xalqi tarixida milliy, tarixiy, diniy, umumiy insoniy qadriyatlarini tiklashga katta e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax_pedagogika_institut_i

¹⁰ S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil. 40-bet

Тарих ва Жамият илмий журнали

1991 yil 22 apreldagi buyrug'i bilan jumhuriyatning barcha pedagogika oliy va maxsus o'rta o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'rganish joriy etildi. Institutda ham O'zbekiston tarixi kafedrasini tashkil topib, O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston xalqlar tarixi kafedrasini yuqori malakali o'qituvchi kadrlar bilan to'la ta'minlandi. Kafedrada dastlab tarix fanlari nomzodi, dotsent R. Xolmurodov kafedraga mudirlik qilib, dotsentlar R.Nurqulova, B. Mirkomilov, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi A. Boltayev, o'qituvchilar T. Umirov, I. Abdusaidov, A. Valiyev va M. Ibragimovlar talabalarga har tomonlama puxta bilim berishgan. Kafedra a'zolari o'zlarining ma'ruza va ilmiy mashg'ulotlarida O'zbekiston Respublikasi tarixi fani buyicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalar, monografiya hamda ilmiy izlanishlarni ham amalga oshirganlar¹¹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga natijasida ming yilliklarni qamrab oladigan haqqoniy tarixni yoritish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, Jizzax davlat pedagogika institutida Tarix fakulteti tashkil etildi. Fakultetni hozirgi kunga qadar minglab talabalar tamomlab, o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib faoliyat yuritmoqdalar. Ayni kunda Tarix fakultetida 700 dan ziyod talaba mamlakatimizning ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini 60 dan ziyod professor-o'qituvchilar tomonidan berilayotgan darslar orqali puxta o'zlashtirmoqdalar.

¹¹ S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil. 39-bet